

JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI ELEKTRON DALILLARNI EKSPETIZADAN O'TKAZISH.

Yurtimizda yaqin yillarda tashkil etilgan hamda jinoyatlarni tez va to'g'ri ochishda o'zining samaradorligi bilan ajralib turadigan ekspertiza turlaridan biri bu raqamli ekspertiza desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki dunyo aholisining deyarli 90%i bugungi kunda telefon, kompyuter, planshet va boshqa axborot vositalari orqali o'z ish faoliyatini olib boradi va muhim ma'lumotlarini turli hil tashuvchi vositalarda elektron shaklda saqlaydi. Jinoyatlarni tez va to'g'ri ochishda esa elyoktron ma'lumotlarni topa olish, tiklay olish, saqlash, ulardan nusxa ko'chirish va ulardan isbot qilish jarayonida foydalana olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqshunos olim S.Otaxo'jaevning aytishicha sud ekspertizasi ikki xil xususiyatga ega, ya'ni u bir tomondan ilmiy (texnik yoki boshqa turdagi) tadqiqot, ikkinchi tomondan esa daliliy faktlarni aniqlashga qaratilgan prosessual harakat. Sud ekspertizasining prosessual prinsplari barcha turdagi prosesslarda amal qilib ularga qonuniylik, ekspert tadqiqotining holisligi, to'liqligi, ekspertning o'z kasbiga loyiqligi, prosessual mustaqillik, o'z xulosalariga shaxsan javobgarligi, tashabbuskorligi va boshqalar kiradi. Sh.Shoraxmetov ekspertizani bilimdon yoki hunarmand shaxslar yordamida dalillarni tekshirish usuli sifatida e'tirof etadi¹.

Raqamli sud ekspertiza sud ishlariga taalluqli dalillarni to'plash, saqlash va tahlil qilish bo'yicha ilmiy metodlarni qo'llashdir. Yana boshqa adabiyotlarda raqamli ekspertizaga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan. Raqamli operatsiyalarga zarar yetkazadigan noqonuniy hatti-harakatlarning oldini olish maqsadida raqamli manbalardan olingan raqamli dalillarni olish, yig'ish, saqlash, tasdiqlash, identifikasiyalash, tahlil qilish, talqin qilish, hujjatlashtirish va taqdim etish bo'yicha ilmiy asoslangan va tasdiqdangan usullar jamlanmasidir.

Londonda joylashgan "Forensic control" kiberjinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha ekspertiza markazining www.forensiccontrol.com saytida kompyuter ekspertizasi raqamli ma'lumotlarni to'plash, tekshirish, tahlil qilish va raqamli ekspertiza hisobotlarini qonuniy yo'l bilan qabul qilish amaliyoti ekanligi aytib o'tilgan. U jinoyatni aniqlash, oldini olishda va dalillarni raqamli tarzda saqlab turadigan har qanday nizoda qo'llanilishi mumkin. Umumiy qilib shuni ayta olamizki, raqamli xotira va raqamli muhitda nima, qachon va qanday sodir bo'lganligini o'rganuvchi soha raqamli ekspertiza hisoblanadi².

¹ O.Sh.Pirmatov. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda elektron dalillarni blokcheyn dasturiga solishning zarurati. "Huquqiy tadqiqotlar" jurnali. – 2020.10.10.

² <https://proacademy.uz/postfiles/sets/f9/sd/index.html>

Raqamli ekspertiza sudda bo'ladigan nizolarga qarab quyidagi holatlar yuzasidan tayinlanishi mumkin:

- intellektual mulk bo'yicha nizoli holatlarda;
- hodimlar faoliyati bilan bog'liq muammoli holatlarda;
- firibgarlik;
- korxonada kamomadi yuzasidan sodir bo'lgan holatlarda;
- korxonada yozishmalari va elektron hujjatlari yuzasidan nizoli holatlarda;
- o'chirilgan yoki yashirin ma'lumotlarni tiklash;
- yo'q qilingan elektron pochta xabarlarini tiklash;
- qattaq diskdan ma'lumotlarni qayta tiklash;
- o'tkazilgan yoki nusxalangan fayllarni topish;
- SMS xabarlar, aloqalar, kontaktlar va noqonuniy suhbatlar mazmunini topish;
- Xakkerlik, keyloggerlik kabi noqonuniy faoliyat turlari bo'yicha.

Ekspert xulosasidagi ma'lumotlar dalil hisoblanadi, chunki ekspert bu ma'lumotlarni ekspertizaga yuborilgan ob'ektlarni bevosita tekshirishi natijasida oladi. Ekspert xulosasi bu shaxsiy dalil, sababi u maxsus bilimga ega bo'lgan shaxsdan kelib chiqadi. Ekspert xulosasiga baho berish boshqa dalillarga baho berish kabi amalga oshiriladi, biroq u o'ziga xos ayrim xususiyatga ham ega.

Qonunda belgilangan tartiblarga rioya etilmagan holda tayinlanish va o'tkazish natijasida olingan xulosa nomaqbul hisoblanadi, ya'ni: agar ekspertiza jinoyat prosessining qonunda belgilanmagan bosqichida masalan, jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayinlash vaqtida o'tkazilgan bo'lsa; agar u rad qilinishi lozim bo'lgan shaxs tomonidan o'tkazilgan bo'lsa; agar ekspert bilaturib yolg'on xulosa bergan bo'lsa; agar ekspertiza tayinlash vaqtida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va prosessning boshqa ishtirokchilarining huquqlari buzilgan bo'lsa va b.h. Ashyoviy dalil ekspertga yuborilganda, uni ehtiyotkorlik bilan saqlashga oid maxsus qoidalar, jumladan, tik holda, quruq joyda, muayyan haroratda saqlanishi haqida ogohlantiruvchi yozuvlar ashoviy dalil o'raining ustida yaqqol joylashtirilishi lozim. Tez buziladigan mahsulotlar kimyoviy o'zgarishining oldi olinmasa, ularni tekshirish, identifikatsiyalash imkoniyatlari yo'qolishini ham e'tiborga olish kerak.

Ashoviy dalillar ekspert tekshiruvida to'la sarflanmasligi, ulardan namuna olish uslubidan foydalanilishi lozim. Amaliyotda ayrim hollarda sud tergovida, ko'plab hollarda dastlabki tergovda ekspertiza xulosasiga alohida daliliy ahamiyat beriladi.

Ekspert xulosasiga nisbatan tanqidiy yondashuvning yo'qligi keng tarqalgan tergov va sud xatolaridan biri hisoblanadi³.

³ **Жиноят ишлари юритувида далиллар назарияси.** Ўқув қўлланма. ю.ф.н. доцент М.Х.Кадирова, ўқитувчи А.А.Хакбердиев – Тошкент: ТДЮУ, 2020. - 212 бет

JPKning 172-moddasiga ko‘ra, ish uchun ahamiyatli holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni fan, texnika, san’at yoki kasb sohasi bo‘yicha bilimi bo‘lgan shaxs o‘tkazadigan maxsus tekshirish orqali olish mumkin bo‘lganda ekspertiza tayinlanadi. Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas⁴.

Raqamli ekspertiza yuzasidan berilgan xulosada qo‘yidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lishi lozim:

- Qurilma bilan qanday aloqaga kirishilgan? Qurilma qanday holatda (o‘chirilgan, yoki yoniq, qulflangan yoki ochiq);
- Agar qurilma yoqilgan yoki undan keyin yoqilgan bo‘lsa, signal yoki boshqa kontaminasiya shakillaridan qanday qilib ajratilgan?
- Qurilmani topish uchun qanday qonuniy usul ishlatilgan?
- Saqlangan ma’lumotlarni chiqarish uchun qanday vositalar, yordamchi dasturlar va usullar ishlatilgan?
- Qo‘llanilgan vositalarning versiyalari qanday edi?
- Qanday ma’lumotlar olingan?
- Hisobotning har qanday muammolari va mavhumliklarini tushuntirib berish.
- Olingan natijalar qanday tasdiqlangan?

Ekspertning taxminlarga asoslangan xulosasi sud hal qiluv qarorini qabul qilishda asos bo‘lolmasligini inobatga olsak, elektron dalillar yuzasidan o‘tkazilgan ekspertiza bo‘yicha ekspert faqat qat’iy yoki shartli xulosa beraolishi mumkin.

Biologik dalillarni ekspertizadan o‘tkazgan vaqtimizda ularga tashqi muhit ta’sir etishi mumkin, ammo elektron dalillarda muhit ta’siri deyarli sezilmaydi. Elektron dalillar raqamlangan yoki ma’lum bir algoritm ketma-ketligida yaratilganligi bois ularga nisbatan tahminiy xulosalar berilmaydi. Bu ham elektron dalillarning boshqa an’anaviy dalillardan ustun jihati bo‘laoladi desak adashmagan bo‘lamiz.

Ekspertlar tomonidan raqamli ekspertiza o‘tkazish jarayoni 4ta bosqichdan iborat bo‘ladi. **Birinchi**, dalillarni to‘plash bosqisi va bunda axborot kompyuter vositalarida to‘planadi. To‘plangan ma’lumotlarning manbasi va atributlari (kelib chiqishini ko‘rsatuvchi belgisi) ham bo‘lishi lozim. To‘plangan ma’lumotlarning xavfsizligi, yaxlitligi va maxfiylikiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Ma’lumotlarni yig‘ish vaqtida ba’zan o‘zgaruvchan ma’lumotlarga duch kelishimiz mumkin bunday hollarda tarmoq ulanishlari yoki kompyuterning asosiy xotirasini tuzatish uchun kerakli choralar ko‘rilishi lozim. **Ikkinchi** bosqichda esa to‘plangan ma’lumotlar tadqiq

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

Toshkent: “Adolat”, 2020. – 672-b. <https://lex.uz/docs/111460#253743>

qilinadi ya'ni ekspertizadan o'tkaziladi. Bu jarayonda ishga aloqador bo'lgan ma'lumotlar olinadi, kodlanadi yoki koddan yechiladi, ayrim ishlar esa to'liq avtomatlashtiriladi. **Keyingi bosichda** esa ekspertizadan o'tkazilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ilmiy metodlardan foydalangan holda ekspertga berilgan savollarga javob beriladi. **So'nggi bosqichda** esa olingan natijalar konun bilan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi va sudga taqdim etiladi. Zarur hollarda ekspertiza natijalarini bo'yicha ekspert sudda izohlar berib o'tadi. Bunda ekspert (mutaxassis) o'zining harakatlarini bosqichma bosqich hujjatlashtirishi, dalillarni olish va tekshirish usullari hamda vositalarini ko'rsatishi, baholash mezonlarini va qiymatlash masalalarini batafsil aytib berishi lozim. Shu bilan birga, ekspert (mutaxassis) tadqiqot natijalarini sud muhokamasida qayta ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiq. Sababi, ekspertiza tadqiqoti natijalari sudya, prokuror, advokat tomonidan tekshirilganda bir xil qiymatni berishi kerak.

Amaliyotda ekspertlar hamda tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud'yalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va ularning harakatlarini yagona tizimga solish maqsadida ekspertlarga elektron tarzda ekspertiza tayinlash va natijasi bo'lgan xulosani olish tartibini joriy qilish lozim. Ushbu tizim «E-expert» deb nomlanib, u orqali ekspertiza tayinlanishi hamda tadqiqot natijasi bo'lgan xulosa elektron tarzda tayinlagan organga

yuborilishi mumkin bo'ladi. Shunda hujjat bilan tanishish imkoniyati tezlashadi va oxirida elektron xulosa olib, ularni tezda baholash imkoniyatini beradi. Bu holat ekspertiza tayinlash jarayoni sifatini va tezligini ta'minlashga yordam beradi. Bu portalda yana ekspertiza tayinlash vakolatiga ega bo'lgan shaxslar o'z savollarini, ya'ni ma'lum bir obyektning tashkilotda tadqiq etish mumkinmi, kimlar shu sohada ekspert ekanligi (ekspertlar ro'yxati), qanday usullar yordamida tadqiqot o'tkazilishi hamda asosan ushbu holatda qanday savollar berish yuzasidan maslahat olish imkoniyati paydo bo'ladi⁵.

Raqamli sud ekspertizasi ham o'z ichida bir qancha tarmoqlarga bo'linadi:

- Mobil qurilma ekspertizasi;
- Komp'yuter ekspertizasi;
- NET-tarmoq ekspertizasi;
- Axborot ombori ekspertizasi;
- Jonli (live) ekspertiza;

Mobil qurilma ekspertizasi mobil telefon va boshqa mobil aloqa vositalariga nisbatan o'tkaziladi. Mobil telefonlar nafaqat aloqa uchun, balki tasvir, suhbat, kontakt ma'lumotlari va hujjatlarni o'zida saqlaydi va bugungi kunda eng ko'p tarqalgan elektron dalillarni saqlovchi vosita hisoblanadi.

⁵ <https://sudyalarioliymaktabi.uz/uploads/abstracts/d5ba29197eca47d2122cd6a2cb6f008f.pdf>

Kompyuter ekspertizasi kompyuterda saqlanyotgan elektron dalillar bilan bog‘liq holatlarda qo‘llaniladi.

NET-tarmoq ekspertizasi tarmoq trafigi bilan bog‘liq holatlar yuzasidan o‘tkaziladi. Tarmoq trafigi asosan Internet hisoblanadi. Tarmoq trafigini ekspertizadan o‘tkazishdan asosiy maqsad ma'lumot to‘plash, dalil yig‘ish yoki tarmoqqa qilingan kiber hujumlarni aniqlash bo‘lishi mumkin. Tarmoq ekspertizasi atamasi Network Flight Recorder dasturining asoschisi Markus Ranum bilan bog‘liq. U xavfsizlik manbasining xurujini aniqlash uchun maxsus dastur yaratadi va u dastur orqali tarmoqda sodir bo‘layotgan barcha amallarni kuzatish, yozib olish va tahlil qilish mumkin. Internet yoki World Wide Web (WWW) butun dunyo kompyuterlari Internet protocol suite (TCP/IP) manzilidagi birlashmasi bo‘lib hujjatlar va ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot resursi. Amerikalik huquqshunos Jozef Gregoriy Internetdagi dalillarni veb-sayt yohud ijtimoiy tarmoq saxifasi egasining qo‘ygan postlari, uning boshqa shaxslar bilan olib borgan yozishmalari va veb-sayt yohud ijtimoiy tarmoq saxifasiga uchinchi shaxslarning yozgan yozishmalari (xakkerlarga) shakllariga ajratadi.

Amerikalik huquqshunos Paul Grimm Internetdagi postlarni dalil sifatida baholashda ular quyidagi talablarga javob berishi lozim deb hisoblaydi:

- Ijtimoiy tarmoq egasi va post bir-biriga aloqador bo‘lishi;
- Ijtimoiy tarmoq egasi o‘z veb sahifasida post yaratgan bo‘lishi;
- Ijtimoiy tarmoqda qoldirilgan post da'vogarga aloqador bo‘lishi;
- Ekspertiza xulosasida post ijtimoiy tarmoq egasining qattaq diskida saqlanganligi aniqlangan bo‘lishi;
- Qoldirilgan postni boshqa shaxslar ko‘rishi va o‘qishi imkoniyati borligi;
- Qoldirilgan post ijtimoiy tarmoq egasining fikri bo‘lishi.

Bizning fikrimizcha ham raqamli dalillar bilan ishlovchi ekspert o‘z xulosasida post yoki ma'lumotlar ijtimoiy tarmoq egasining qattiq diskida saqlanganmi saqlangan bo‘lsa qaysi sanada saqlanganligiga alohida e'tibor berishi lozim. Bu bizga postning haqiqiy egasini aniqlashda qo‘l keladi.

Axborot ombori ekspertizasi asosan ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydi. Asosan axborot ombori va uning meta ma'lumotlarini tahlil qiladi. Ko‘pchilik ekspertlar va tergovchilarning axborot manbasi qattiq disklar, optik disklar va tashqi media hisoblanadi. Kompyuter tizimida ma'lumotning shakllanishi ketma-ket joylashgan abstrakt qatlamlarda amalga oshiriladi. Har bir dasturiy qatlam asta-sekin o‘zining ostidagi qatlam tomonidan taqdim etilgan interfeysga bog‘liq ma'lumotlarni yaratadi. Shunga ko‘ra axborot omborlarida amalga oshiriladigan raqamli ekspertialar bir necha darajada bajariladi. Eng quyi darajadagi saqlash qurilmasi birni kodlaydi va prinsipal ravishda xar bir ma'lumotni diskdan ajratish uchun alohida amal bajarishni talab qiladi.

Ushbu jarayon ko‘p vaqt va mabla‘o‘ talab qilgani uchun ham ushbu jarayon amaliyotda kamdan kam hollarda qo‘llaniladi .

Jonli (live) ekspertiza raqamli sud ekspertiza tarmog‘i bilan bog‘liq bo‘lib amalda sodir bo‘lyotgan holatlarni tekshirilishi va tahlili bilan shug‘ullanadi. Ya'ni biror o‘zgarishsiz tizimning o‘zida ma'lumotlarni tahlil qiladi. Bu hech qanday o‘zgarishlarsiz va yo‘qotishlarsiz dalillarning o‘ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi.

Elektron dalillarga nisbatan ham xuddi an'anaviy dalillar kabi sud-ekspert ixtisosligidagi bir qancha ekspertiza turlari o‘tkazilishi mumkin. Masalan: **kompleks sud ekspertizasi** o‘tkazilganda har bir ekspert o‘z faoliyati doirasida tekshirishlar olib boradi. Xulosada esa har bir ekspert alohida o‘zining tekshirishlari natijasini kiritadi, qancha hajmda ish olib borganligini va qaysi holatda qanday fikrga kelganligini kiritadi. Qonunchiligimizga ko‘ra, agar ekspert xulosasi yetarlicha asoslantirilmagan yoki asos qilib olingan dalillar ishonchli bo‘lmasa va prosessual tartiblarga rioya etilgan holda olinmagan bo‘lsa **qayta ekspertiza** tayinlanishi mumkin. Elektron dalillar qayta ekspertizaga topshirilganda dalillar boshqa ekspertga yoki ekspertlar komissiyasiga topshiriladi. Ekspert xulosasida elektron dalillar bilan bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazilgan vaqtda bo‘shliqlar mavjud bo‘lsa qo‘shimcha ekspertiza ham o‘tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasiining “**Sud ekspertizasi to‘g‘risida**”gi qonunining 9-moddasida tekshirish obektlari sifatida ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek sud ekspertizasi o‘tkazilayotgan ish materiallari bo‘lishi va tekshirishlar tirik odamga nisbatan ham o‘tkazilishi mumkinligi keltirib o‘tilgan⁶. Hozirgi kunda elektron dalillardan deyarli barcha jinoyatlarni fosh etishda qo‘llaniladi va ularning ashyoviy dalillar, hujjatlardan farqli jihatlarini yuqoridagi paragraflarda tahlil qildik. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasiining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasiga qo‘yidagicha qo‘shimcha kiritishni taklif etamiz. *Ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, ishga aloqador bo‘lgan barcha elektron dalillar sud ekspertizasi o‘tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obektlari bo‘lishi mumkin.*

Har qanday prosessda ish tegrov harakatlarida dalillarni to‘plash bilan boshlanadi. Agar dalillar noto‘g‘ri olingan yoki to‘plangan bo‘lsa, prosessni boshidan boshlashga to‘g‘ri kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekspertlar raqamli dalillarni tahlil qilish uchun ulardan nusxa olyotganda EnCase dasturidan foydalanishadi va bu dastur qattaq diskdagi eng kichik elementlarni ham to‘g‘ri ko‘chirishda samarali usul hisoblanadi. Ushbu jarayoni “aks ettirish” yoki “kriminalistik nusxalash” deb

⁶ O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni <https://lex.uz/acts/1633102>

yuritiladi. Ushbu metoddan birinchi marta AQShning Ogayo shtatida foydalanilgan. Nusxa ko‘chirishning hozirgi kunda boshqa usullari ham mavjud, ammo ular qattiq disklardan ma'lumotlarni to‘liq nusxalamaydi va bu keyinchalik dalillarni baholashda va ularni qabul qilishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Raqamli axborot va dalillarning yuqori darajadagi nusxalarini olish kundan kunga rivojlanib bormoqda, ayniqsa sud tomonidan olingan elektron dalillarning nusxalari o‘zgartirilmaganligini isbotlash uchun ularning xesh qiymatlari juda muhim hisobladi. Ulardagi qiymat orqali biz ma'lumotning to‘laligini va uning manbaini autentifikatsiya qilaolamiz. Ma'lumotni uzatishda yoki saqlashda uning to‘laligini nazorat qilish uchun har bir ma'lumotning xesh qiymati (bu xesh qiymat ma'lumotni autentifikatsiya qilish kodi yoki “imitovstavka”-ma'lumot bloklari bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha kiritilgan belgi deyiladi) hisoblaniladi va bu qiymat ma'lumot bilan birga saqlaniladi yoki uzatiladi. Ma'lumotni qabul qilgan foydalanuvchi ma'lumotning xesh qiymatini hisoblaydi va uning nazorat qiymati bilan solishtiradi. Agar taqqoslashda bu qiymatlar mos kelmasa, ma'lumot o‘zgarganligini bildiradi .

XULOSA

Elektron dalillar tushunchasiga yuridik fanda va qonunchilikda nazariyhuquqiy jihatdan yetarlicha ta'rif berilmaganligi hamda elektron dalilning mohiyati va mazmuni yuzasidan olimlar o‘rtasida yagona yondashuv shakllanmaganligini ta'kidlash lozim. Bitiruv malakaviy ish davomida elektron dalillarning yuridik tabiatini tahlil qilib quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. *“Elektron dalil – bu axborot texnologiyalari orqali yaratilgan, uzatilgan, qayta ishlanadigan, saqlanadigan va hamda uni identifikatsiya qilishimkoniyatini beradigan raqamli ma'lumot”*.

Elektron dalil tushunchasini alohida tekshirish obyektlari qatoriga kiritish lozim, chunki ular boshqa obyekt turlaridan mutlaqo o‘zining shakli va moddiy xossasiga ko‘ra farq qiladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasiining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasiga va JPKning 175-moddasiga qo‘yidagicha qo‘shimcha kiritishni taklif etamiz: *“Ashyoviy dalillar, tekshirish uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, shuningdek ekspertiza o‘tkazilayotgan ish materiallari, ishga aloqador bo‘lgan barcha elektron dalillar tekshirish obyektlari bo‘lishi mumkin”*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1 Mirziyoyev Sh.M. Konsitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. T.O‘zbekiston, 2019. 48-b.

1.2 Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasidan.

1.3 Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 48.b.

1.4 Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018-yil.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 40-b.

2.2 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2020. – 672-b.

2.3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyatprotsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-sonli Qarori.

2.4 O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi “Surishtiruv institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-442-sonli Qonuni.

2.5 O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-675-sonli Qonuni.

III. Миллий адабиётлар, илмий мақола ва тезислар.

3.1 A.I.Rustamovich, B.Z.Karimov. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda raqamli ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanish: milliy va xorijiy tajriba. T.: Bosh prokratura akademiyasi. 2019. 74 b.

3.2 Jinoyat ishlari yurituvida dalillar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. yu.f.n. dosent M.X.Kadirova, o‘qituvchi A.A.Xakberdiev – Toshkent: TDYU, 2020. - 212 b.

3.3 Jinoyat prosessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi // -T.: TDYU nashriyoti, 2021. -248 bet

3.4 Kadirova M.X. Dalillar nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYU , 2022. - 303 b.

3.5 XamidovB.X., KarimovB.Z. Some issues in the development of the national cyber security strategy: problem and analysis. Europe, science and we | Evropa, veda my | Yevropa, nauka i mi Education and Science, Czech Republic. 2020. –P.63.

3.6 O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent. Adolat. 2010. 234 b.

3.7 O.Sh.Pirmatov. Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda elektron dalillarni blokcheyn dasturiga solishning zarurati. “Huquqiy tadqiqotlar” jurnali. – 2020.10.10.

3.8 B.X.Xamidov. Kiberjinoyatlarni tergov qilishda ekspert ko‘rsatuv-larini tekshirish va baholash.

IV. Хорижий манбалар.

4.1 Ranum, M. J.Landfield. Implememnting a generalized tool for network monitoring. Information security technical report 3, 4, 1998 pp 53-64.

4.2 Ranum, M. Network forensics: Network traffic monitoring, 1997, 70.

4.3 Antwi-Boasiako and Venter, 2017; US National Institute of Justice, 2004 International conference science and education/uluslararası konferans bilim ve eğitim. 2021. http://doi.org/10.37057/T_1 (155–158).

V. Интернетдан манбалари.

5.1 <http://www.lex.uz>

5.2 <http://www.regulation.gov.uz>

5.3 <http://www.norma.uz>

5.4 <https://proacademy.uz/postfiles/sets/f9/sd/index.html>

5.5 <https://www.cyberleninka.ru>

5.6 <https://hsti.uz/wp-content/uploads/2022/07/IPP-06.07.2022-LAST.pdf>

5.7 <https://www.duo.uio.no/bitstream/handle/10852/39023/THESISxDUO.pdf?sequence=1>